

акциядорлик жамиятларида ахборотни ошкор қилиш тизимини такомиллаштиради.

XORIY TIJORAT BANKLARIDA AKSIYADORLAR BILAN MUNOSABATLAR YO'NALISHLARI

Bo'riyev Jamshid

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Bugungi iqtisodiyotning raqamlashuvi asosida moliyaviy munosabatlarni tashkil etish imkoniyatlari vaqt va makon nuqtai nazaridan nihoyatda qulay. Bunda ayniqsa birinchi navbatda moliyaviy munosabatlarni internet tarmog'i orqali masofaviy rejimda tashkil etishga ustuvorlik berilmoqda. Tijorat banklari tomonidan raqamli bank xizmatlarini kengaytirib borish orqali mobil banking xizmatlari, onlayn omonat va depozitlar, onlayn kreditlash amaliyotlari rivojlanib bormoqda. Mazkur jihat tijorat banklari raqamli transformatsiyasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu istalgan vaqtda hisob-kitoblarni talab qilishi bois, tijorat banklaridan 24/7 rejimda lahzalik likvidlikni ham talab qilmoqda. Raqamli transformatsiyadan biror bir bir tijorat banki chetda qoladigan bo'lsa, shubhasiz bugungi iqtisodiyotning raqamlashuvi sharoitida keskin raqobat muhitida inqirozga yuz tutishi haqiqat. Raqamli imkoniyatlar mijozlarga raqamli bank xizmatlari ko'rsatish bilan birga mulkdorlar, ya'ni aksiyadorlar yoki investorlar bilan moliyaviy munosabatlarning ham raqamlashuviga imkon yaratgan. Yuqoridagilar asosida bugun raqamli bank, onlayn bank turlari milliy va jahon iqtisodiyotida ommalashib ulgurdi.

Bugungi global raqobat va jahon iqtisodiyotidagi moliyalashuv sharoitida tijorat banklari faoliyatining barqarorligi va raqobatbardoshligi ko'p jihatdan manfaatdor tomonlar, ayniqsa aksiyadorlar bilan samarali moliyaviy munosabatlarni tashkil etishga bog'liq. Chunki aksiyadorlar bilan o'zaro manfaatli moliyaviy munosabatlarning o'rnatilishi tijorat banklariga ham arzon kapital jalb qilinishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu orqali jahon bank tizimlarida aksiyadorlar kapitalining rolini yana oshirilishiga erishiladi. Ularning faol ishtirokini ta'minlash va korporativ boshqaruvning ochiqligini oshirish tijorat banklarida ham asosiy strategik yo'nalishlardan biriga aylanadi.

Zarurat va alohida dolzarblik shundaki, aksiyadorlar bilan o'zaro manfaatli moliyaviy munosabatlarning yo'lga qo'yilishi shubhasiz investitsion jozibadorlikni oshiradi. Mazkur jihat o'z navbatida tijorat banklari kapitalini, xususan xususiy kapitalini oshiradi, shu bilan birgan milliy va xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlaydi, milliy va xalqaro bozordagi nufuzini yaxshilaydi. Masalan, 2024 yilda AQSh, Buyuk Britaniya va Yaponiya kabi mamlakatlarda bank aksiyalariga xususiy investorlar ulushi 48-52 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich aksiyadorlar bilan shaffof va samarali moliyaviy munosabatlarning qanchalik muhim ekanini ko'rsatadi. Shu jihatdan xorijiy tajriba O'zbekiston tijorat banklari uchun ham o'rganishga, tadqiq qilishga arziydigan muhim namuna hisoblanadi. Chunki xorijiy banklardagi aksiyadorlar bilan moliyaviy munosabatlar tizimi – dividend siyosati, foydani taqsimlash, korporativ axborotlar ochiqligi va o'zaro qayta aloqa mexanizmlari orqali rivojlanib kelmoqda. Bu kabi omillar yuqorida qayd etganimizdek milliy va global raqobatdoshlikda shubhasiz muhimdir.

Xorijiy tijorat banklarida aksiyadorlar bilan moliyaviy munosabatlar quyidagi asosiy yo'nalishlar asosida tashkil etiladi:

1. Tijorat banki korporativ boshqaruv shaffofligi va axborotlar oshkoraligi. Har qanday tijorat bankidagi bo'lgani kabi xorijiy tijorat banklarida ham aksiyadorlar bilan munosabatlarda korporativ boshqaruvning samarali tizimi muhim o'rin tutadi. Masalan, AQShning "JPMorgan Chase" va "Bank of America" banklarida aksiyadorlar har chorakda moliyaviy hisobotlar va onlayn majlislar orqali bankning moliyaviy ko'rsatkichlarini to'liq kuzatish imkoniyatiga ega. Qolaversa har chorakdagi hisobotlar mazkur banklar uchun o'ziga xos reklama vazifasini ham o'tab beradi. Korporativ boshqaruv shaffofligi ta'minlanishi uchun hech bir aksiyadorning nazorat paketiga egalik qilmasligi tijorat banklari faoliyatida ham muhim. Ishonchli axborot moliya bozorida faoliyat yuritish hamda moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun muhim resurs vazifasini o'tashi muhim haqiqatga aylanib ulgurgan. Tijorat banklari tomonidan aksiyadorlarga o'z vaqtida va to'liq axborotning yetkazilishi ham turli xil korporativ nizolarning oldini olishga xizmat qiladi, ham samarali moliyaviy qarorlar qabul qilinishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Respublikamizdagi aksiyadorlik jamiyatlarida axborotlar ochiqligi borasida ma'lum bir muammolar mavjudligicha qolmoqda. Emitent tomonidan aksiyadorlarga axborot yetkazish imkoniyatlari bugungi kunda keskin yuqori.

2. Foydani taqsimlash mexanizmi va samarali dividend siyosati. Har qanday aksiyadorlik jamiyatida bo'lgani kabi tijorat banklarida ham ulush bilan ishtirok etganida investor uchun qaytim o'ta muhim. Bundan milliy va xorijiy tijorat banklari ham mustasno emas. Ya'ni ularda ham dividend siyosati uzoq muddatli strategiyaga asoslangan holda investorlar bilan o'zaro manfaatli moliyaviy munosabatlar o'rnatilganida ijobiy ahamiyat kasb etadi. Masalan, Shveysariyaning "UBS Group" 2024 yilda aksiyadorlarga 5,5 milliard dollar miqdorida dividend to'lagan bo'lib, bu aksiyadorlar ishonchini yanada mustahkamlagan. Dividend siyosati va foydani taqsimlash mexanizmi investorlar tomonidan jozibador baholanganida o'z-o'zidan qo'shilgan kapital hajmini oshirib borish imkoniyati yuzaga keladi.

3. Aksiyadorlar huquqlarini va manfaatlarini himoya qilish tizimi. Buning uchun birinchi navbatda qonun ustuvorligi shart hisoblanadi va sud tizimi orqali hal qilinadi. Xorijiy mamlakatlarda aksiyadorlar huquqlarini va manfaatlarini himoya qilishni ta'minlovchi maxsus institutlar faoliyat ko'rsatadi. Buyuk Britaniyada "Shareholder Rights Directive II" orqali aksiyadorlar onlayn ovoz berish huquqiga ega. Va bu tizimi hatto minoritar aksiyadorlar huquq va manfaatlarini ham ta'minlashga xizmat qiladi.

4. Innovatsion muloqot shakllari. Germaniya va Kanadadagi tijorat banklarida aksiyadorlar bilan munosabatlar onlayn platformalar orqali tashkil etiladi. "Deutsche Bank" misolida, 2024 yilda 70 mingdan ziyod aksiyadorlar elektron yig'ilishlarda ishtirok etgan. Yangi Zelandiyadagi tijorat banki aksiyalariga Portugaliyadan yoki Kanadadan turgan holda xalqaro to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar kiritish va ulushini oshirib borish yoki aksiyalarni sotish amaliyoti allaqachon qo'llanilib kelinmoqda. Bunda investor bank boshqaruvida raqamli texnologiyalar vositasida ishtirok etib moliyaviy qarorlar qabul qilinishiga o'z ta'sirini bevosita ko'rsatish imkoniyatlari ham mavjud. Mazkur holatda aksiyadorlik amaliyotining onlayn tartibga o'tganligini alohida qayd etib o'tish lozim. Shundan kelib chiqqan holda respublikamizda ham fond birjasi mobil amaliyotlariga, aksiyadorlar umumiy yig'ilishida elektron ovoz berish yoki videokonferensiyalar amaliyotlariga to'la-to'kis o'tish lozim. Shuningdek xalqaro fond

birjalari bilan o'zaro integratsiyalashgan elektron savdo maydonlariga chiqish ham istiqbolda tijorat banklari qatori barcha aksiyadorlik jamiyatlari, umuman emitentlar faoliyatida alohida ahamiyat kasb etadi.

5. Investitsion jozibadorlik va ESG tamoyillari. Global iqlim o'zgarishlari fonida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish masalasi har qachongidan muhim bo'lgan sharoitda xorijiy banklar faoliyatida ESG standartlari asosida aksiyadorlar bilan munosabatni yo'lga qo'yish tendensiyasi kuchaymoqda. Kanadadagi "Royal Bank of Canada" ESG asosida faoliyat yuritishi natijasida aksiyadorlar soni 2023 yilga nisbatan 11 foizga oshgan.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlab o'tmoqchimizki, bank tizimidagi transformatsiya bugungi kunda barcha soxalarni qamrab olmoqda. Resurs jalb qilishdan tortib zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatishgacha bo'lgan muhim bosqichlardan o'tilmoqda. Yuqorida ta'kidlaganimizdek rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida banklar qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar hajmini doimiy oshirib bormoqda. Bunda tezkor resurs jalb qilish, zamonaviy bank xizmatlarni ko'rsatishda fond bozoridagi faollik juda muhim vazifalardan bo'lib qolmoqda. Umuman xorijiy tijorat banklari tajribasiga ko'ra aksiyadorlar bilan samarali moliyaviy munosabatlarda foydani o'zaro manfaatli taqsimlash bilan birga ishonch, barqarorlik va investitsion muhitni rivojlantirish muhim mexanizmlar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020 – 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni, 2020 yil 12 may;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3620-son Qarori, 2018 yil 23 mart.
3. Deutsche Bank AG Green Financing Instruments Report. <https://www.iss-corporate.com/file/documents/spo/reportreview-20240607-Deutsche%20Bank%20AG.pdf>
4. <https://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi;

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ФИНАНСОВЫХ ОТНОШЕНИЙ И ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ВАЛЮТ В УЗБЕКИСТАНЕ

Г.Б.Уменова

*Студентка Ташкентский государственный экономический университет,
факультет "Финансы и финансовые технологии"*

В современный технологический век цифровая трансформация финансовых систем стала ключевым фактором укрепления национального суверенитета и устойчивости экономики. В рамках реализации стратегии «Узбекистан – 2030» и программы «Цифровой Узбекистан – 2030» развитие цифровой экономики определено как основной драйвер роста, при этом планируется увеличить её долю не менее чем в 2,5 раза к концу 2026 года⁸⁹.

⁸⁹ Указ Президента Республики Узбекистан от 05.10.2020 г. № УП-6079 «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030»